

BUG'DOY O'SIMLIGINI YOMG'IRLATIB SUG'ORISH SAMARADORLIGI

Aramova Gulhayo Baxtiyorovna- Termiz davlat universiteti, o'qituvchi
Surxondaryo, O'zbekiston

Fazilov Sherzod Musurmonovich- Termiz davlat universiteti, o'qituvchi
Surxondaryo, O'zbekiston

EFFICIENCY OF THE SPRINKLING IRRIGATION METHOD FOR IRRIGATION OF WHEAT

Aramova Gulhayo Baxtiyorovna - Termez State University, Teacher. Surkhandarya,
Uzbekistan

Fazilov Sherzod Musurmonovich - Termez State University, Teacher. Surkhandarya,
Uzbekistan

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Respublikamizda don yetishtirishni ko'paytirish uchun hosildorlikni oshirish imkoniyatlarini izlab topib, kuzgi bug'doy navlarini yetishtirish orqali Surxondaryo viloyati sharoitida kuzgi bug'doy navlari belgilarining o'zgaruvchanlik darajasiga ekish me'yorining ta'sirini o'rganildi.

Kalit so'zlar: G'allachilik, bug'doy, ekish me'yor, seleksiya, o'zgaruvchanlik darajasi, ertapishar, kechpishar navlar.

Annatation: In this article, in order to increase grain production in our Republic, the impact of sowing rate on the variability of winter wheat varieties in the conditions of Surkhandarya region by growing winter wheat varieties was studied.

Key words: Cereal production, wheat, planting rate, selection, degree of variation, early, late ripening varieties.

Dunyo miqyosida bug'doy o' simligi muhim donli va yem-xashak ekini bo' lib, yiliga 230 mln. gektar atrofida ekilib kelinadi. Uning o'rtacha hosildorligi gektaridan 28-30 tsentnerni, yalpi hosil esa 600 mln. tonnani tashkil etmoqda. FAO ning ma'lumotlariga ko' ra dunyo aholisini don va un mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun yetishtirilayotgan don hosili miqdorini yiliga 2-2,5% ga orttirish talab

etiladi. Shunga ko‘ra, yetishtirilayotgan bug‘doy hosilini zararli organizmlardan himoya qilish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Mamlakatimiz qisqa fursat ichida Markaziy Osiyo davlatlari orasida bug‘doy doni hosildorligi bo‘yicha birinchi o‘ringa ko‘tarildi, Markaziy, G‘arbiy Osiyo va Shimoliy Afrika davlatlari orasida esa eng yuqori hosildorlikka erishayotgan davlatlar safiga qo‘shildi. Mustaqillik yillari davomida don yetishtirishda muayyan yutuqlarga erishildi. Ma‘lumki, barqaror ravishda qishloq xo‘jalik ekinlarining yuqori hosilini yetishtirishga har xil zararli organizmlar, qolaversa turli abiotik omillar tahdid solib turadi. Keyingi yillarda bug‘doy o‘simligiga suv taqchilligi ancha jadal tadqiq qilina boshlandi, jumladan bug‘doyni yomg‘irlatib sug‘orish O‘zbekistonda chuqur o‘rganilmoqda.

Surxondaryo tajriba maydonida g‘alla yetishtirishda o‘tkazilgan tajribalar.

Kuzgi bug‘doyning Aleksevich navini yomg‘irlatib sug‘orish usulida parvarishlash. (sug‘orish va oziqlantirish tartibi, kasalliklar, xashorotlar va abiotik omillardan ximoyalash)

Yomg‘irlatib sug‘orish (spenkler) ning sug‘orish texnikasi elementlari, nasos stansiyasidagi kirish bosimi, chiqish bosimi, markaziy tarqatuvchi quvurlardagi bosim moslashtirildi, yomg‘ir tomchilari jadalligi, namlash doirasi aniqlandi va maqbul bosim ishlab chiqildi. Sug‘orish muddati, me‘yori o‘rganildi.

1-jadval

Kuzgi bug‘doy hosildorligi 1 M³ maydondagi poyalarni o‘rib olish usulida aniqlandi.

Maydon- chalar	Poyalar soni		Boshoqlar soni	10 ta boshoqdagi donlar		Don vazni,g	Poya va somon vazni g	Xosild s/ga	
	Boshoq- li	Boshoq- siz		soni	vazni			don	somon
1	594	14	5	481	18,2	941,1	708,4	84,1	71
2	593	21	604	388	12,4	714,4	762,0	61,4	76

3	536	20	556	409	15,9	738,6	513,6	63,8	51
4	573	19	583	479	18,1	795,5	581,8	69,6	58
o'rtacha	571,5	18,5		439,3	16,2	797,4	641,5	69,7	64

Oktyabr oyi oxirida 3,0 gektar g'ozadan bo'shagan maydonga gektariga 200 kg/dan fosforli o'g'it berildi va ikki marta chizel-kultivator bilan ishlov berildi.

Tayyorlangan yer maydoniga gektariga 200 kg/dan "Aleksievich"navli kuzgi boshqoli don urug'i qadaldi hamda gektariga 1200 kub metrdan egatlab sug'orildi va urug' undirib olindi.

Noyabr oyining oxirida g'alla maydoni gektariga 900 kub metrdan yana bir marta egatlab sug'orildi.

Fevral oyida kuzgi boshqoli don gektariga 300 kg/dan ammosfos bilan oziqlantirildi hamda gektariga 800 kub metrdan ikki marta egatlab sug'orildi.

Mart oyida kuzgi boshqoli donikki marta 700 kub metrdan sug'orildi. Kuzgi boshqoli don jami 6 marta egatlab sug'orildi va gektariga o'rtacha 5100 kub metr suv berildi.

Aprel oyining boshida kuzgi boshqoli don gektariga sof holda 70 kg/dan karbamid bilan oziqlantirildi.

10 aprelda ushbu g'alla maydoniga sprinklerli yomg'ir latib sug'orish texnologiyasi joriy qilindi.

Aprel-iyun olti marta yomg'ir latib sug'orildi va gektariga o'rtacha 1600 kub metrdan suv sarflandi. Bunda g'alla bargidan ham sug'orildi va uning rivojlanishi uchun mikroiklim yuzaga keltirildi.

Sprinklerli yomg'ir latib sug'orish o'zining samarasini berdi. Natijada, sug'orish mavsumida an'anaviy egatlab sug'orishga nisbatan gektariga 3500 kub metr suv tejaldi hamda o'rtacha 68 sentnerdan hosil o'rib olindi.

Bajarilgan agrotexnik tadbirlar.

20.10.2023 yil, g'oz poyalarni o'rib-yig'ib olish, fosforli-kaliyli mineral o'g'it sochish chizil-kultivator bilan ishlov berish.

25.10.2023 yil, ekish. NRU uskunasida urug' sochish.

- 1.11.2023 yil, sug'orish.
 21.11.2023 yil, oziqlantirish P 300 kg (fizik xolda)
 7.02.2024 yil, oziqlantirish N 300 kg (fizik xolda)
 12.02. sug'orish.
 4.03. to'rtlik (gerbitsid, fungitsid, insektitsid, gumat kaliy) bilan kimyoviy ishlov berish.
 20.04. yomg'irlatib sug'orish 220 M³/ga xisoblagich ko'rsatkichi 270 M³
 25.04. yomg'irlatib sug'orish 190 M³/ga xisoblagich ko'rsatkichi 900
 5.05. yomg'irlatib sug'orish 200 M³/ga xisoblagich ko'rsatkichi 1200
 14.05. yomg'irlatib sug'orish 205 M³/ga xisoblagich ko'rsatkichi 1515
 20.05. yomg'irlatib sug'orish 200 M³ ga xisoblagich ko'rsatkichi 1815
 28.05. yomg'irlatib sug'orish 190 M³/ga xisoblagich ko'rsatkichi 2085
 8.06. yomg'irlatib sug'orish texnologiyasini demontaj qilish, tashish M³
 5.06. xosildorlikni aniqlash.
 17.06. g'allani kombaynda o'rib-yanchib olish.
 24.06. somonni preslab yig'ib olish.

2-jadval

Dala nam sig'imi:% xajmga nisbatan.

Tuproq qatlami	Dala nam sig'imi			Tuproq Zichligi, g/s ^{M³}			Nisbiy zichlik
	I	II	O'rt.	I	II	O'rt.	
0-10	28,9	28,8	28,9	1,34	1,36	1,35	2,65
10-20	29,4	29,9	29,7	1,36	1,37	1,37	2,64
20-30	30,0	30,5	30,3	1,38	1,37	1,38	2,68
30-40	29,3	29,9	29,6	1,39	1,38	1,39	2,67
40-50	30,9	31,2	31,0	1,41	1,40	1,41	2,67

50-60	29,8	30,6	30,2	1,42	1,44	1,43	2,66
60-70	29,1	29,7	29,4	1,43	1,43	1,43	2,67
70-80	29,7	29,8	29,8	1,41	1,40	1,41	2,66
80-90	31,2	31,0	31,1	1,40	1,40	1,40	2,68
90-100	31,8	31,4	31,6	1,39	1,40	1,40	2,66

O'tgan yarim yilda kuzgi bug'doyzorda tarqalib ketgan hamda katta zarar keltirgan begona o't-qushqo'nmasni yo'qotish uchun shu kungacha qo'llanilgan gerbesidlardan samara olishmagan. 2024 yilda Termiz, Jarqo'rg'on va Sariosiyo tumanlari fermer xo'jaliklari qushqo'nmas bosib olgan dalalariga "Finizan" hamda "Starani premium" gerbesidlari bilan qushqo'nmasning chin barg fazasida ishlov berilganda samarasi yuqori bo'lganligi aniqlangan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlatova F. et al. Kuzgi bug'doyning fuzarioz kasalligi bilan zararlanishi //Holders of reason. – 2023. – T. 2. – №. 1. – С. 994-1001.
2. Планирование водопользования при орошении сельскохозяйственных культур: инструктивно-методическое издание/ Ольгаренко Г.В [и др.]. М.: Изд-во ФГБНУ «Росинформагротех», 2014. 172 с.
3. Ефремов А.Н. Лазерная планировка орошаемых земель. М.: Изд-во ООО «Литера Принт», 2016. 52 с.
4. О.Т.Алимardonov, В.Сh.Жо'rayev, N.N.Ochildiyev, A.B.Danabayev-"Surxondaryo viloyatida g'o'zadan yuqori va sifatli hosil yetishtirish agrotexnologiyalari" Termiz-2022 y. 163-b.